

OLTINKO'Z ENTOMAFAGINI BIOLOGIYASI VA KO'PAYTIRISH TEXNALOGIYASINING TARIXI

Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich, katta o'qituvchi

Abduvaliyev Nurbek Bayot o'g'li, talaba

Abdullayeva Iroda Farhod qizi, talaba

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oltinko'z hashorotining ko'paytirish texnologiyasi va biologiyasi uning respublikamiz biolaboratoriyalarda ko'paytiriladigan turlari hamda oltinko'zning qishloq xojaligidagi foydali ahamiyati ya'ni, zararkunandalarni hasharotlarni yoq qilishdagi foydasi va o'simliklarni biologik himoya qilishda asosiy entomofaglardan biri haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit sozlar: Oltinko'z (*Chrysopa*), zararkunanda, biologiya, foydali hasharotlar.

Kirish. Oddiy oltinko'z hammaxo'r kushanda hisoblanib g'o'zadagi o'simlik bitlari, tripslar, o'rgamchakkana, tunlam kapalaklarining tuxumlari va yosh qurtlarga qarshi qiron keltiradi. Lichinkasi yirtqichlik qilib oziqlanadi. Imagosi yirtqich emas, ular tabiatda o'simlik bitlari shirinchalar, o'simlik bitlarining changlari, barg va mevalari ajratmalari bilan oziqlanadilar. O'zbekistonda oltinko'zlarning 12 dan ortiq turi bolib, biolaboratoriyalarda esa oddiy oltinko'z (*Chrysopa carnea*) ko'paytirilib ekinlarning zararkunandalariga qarshi qo'llaniladi. Oltinko'z tabiatda 3-5 avlod berib rivojlanadi oltinko'z tuxumi 3-4 kun (kuzda 5-6 kun) lichinkasi 10-12 kun g'umbagi 6-8 kun rivojlanadi. Imagosi 30-35 kun yashaydi. To'liq rivojlanish uchun 25-35 kun kerek boladi. Oltinko'z uchun optimal harorat 25-30 C⁰ nisbiy havo namligi 60-65% oltinko'z lichinkasi yoshiga qarab kuniga 50-60 ta o'simlik bitini 20 tagacha o'rgamchak kanani qirishi yoki 800 tagacha har xil hashorot tuxumlarini yeyishi mumkin shira, trips, o'rgamchakkanaga qarshi 1;30 nisbatda (profilaktika ucun

g'ozalariga 1;10, 1;20, nisbatlarida chiqariladi. Oddiy oltinko'zni mum kuyasida kopaytirilganda pushtdorligi yuqori bo'lgan biomahsulot olish mumkin. Buning uchun birinchi navbata biolaboratoriyalarida mum kuyasining tog'ri ko'paytirilishiga ahamiyat berish kerak ya'ni, mum kuyasini ko'paytirishda havo harorati, havoning nisbiy namligi, ozuqaning tarkibi, uni berish muddatlariga amal qilish talab etiladi. Xona harorati 28-30 C⁰ va havoning nisbiy namligi 80-85% bo'lish optimal hisoblanadi. Oddiy oltinko'zni mum kuyasi va sun'iy oziqa muhitida ko'paytirish texnologiyasi H.R.Mirzaliyeva (1986) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib undan keyin ushbu sohada hozirgacha farzandalari va shogirdlari tomonidan davom ettirib kelinmoqda ya'ni buning uchun 3 litrli shisha balonlariga 100 grammdan 0'1-raqamli ozuqa solinib, ustiga katta yoshdagi mum kuyasi qurtlardan 200-220 dona solinadi. (mum kuyasi qurtlari ko'paytirish uchun sadoklar olinadi va 10-12 kundan keyin 10-15% kapalaklar ucha boshlagach, shisha balonlariga 0'2-raqamli ozuqadan 150 gramm solinadi. Kapalaklarning uchishi 50% dan oshganda shisha balonlarga 100 donadan oltinko'z tuxumi solinadi. Tuxumdan chiqqan oltinko'z lichinka mum kuyasi tuxumlari va kapalaklarining qoldiqlari bilan oziqlanadi. Lichinkalar 7-8 kunda rivojlanib bo'ladi g'umbakka aylanadi. Yana 6-8 kundan so'ng, g'umbakdan oltinko'zning yetuk zotlari uchib chiqadi. Ulardan tuxum olish uchun mato tasmalari solingan 3 litrli shisha balonlarga 100 tadan terib solinadi. Yetuk zotlar asal va tuxum aralashmasiga hamda mum kuyasi qurtlarining gemolimfasi bilan oziqlanadi. Oltinko'z tuxumlarini bargning ostki tomonga ingichka ipga o'xshash poyachali qilib qo'yadi.



1-rasm. Oltinko'z (*Chrysopa carnea*) entomofagining tuxumlari

Har bir poyada bitta tuxum bo'ladi, tuxum yashil rangda bo'lib keyinchalik sarg'ayadi yoki oltin ranga kiradi. (Shuning uchun Oltinko'z deb ataladi. Tuxumdan 3-5 kunda lichinka (qurt) chiqadi, oltinko'z g'umbagi lichinka uch marta po'st tashlab so'ng g'umbakka aylanadi. G'umbak odatda yaproqlar orasida yoki quruq joyda ipak iplardan to'qilgan oq sharsimon qobiq ichida bo'ladi. Bu holatda hasharotlar 10-14 kuncha g'umbak bosqichida bo'ladi. So'ngra undan kattalashgan oltinko'z hasharoti chiqadi.

Xulosa qilib aytganda oltinko'z entomofagining lichinkalari zararkunanda hasharotlarning tuxumi, kichik yoshdagi lichinka, o'simlik shiralari va o'rgimchakkanalar bilan oziqlanib foyda keltiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзалиева Х.Р. Биологический метод борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур. - Ташкент: Матбуот, 1986. - 54с.
2. Alimuxammedov S.N., Xo'jayev Sh.T. - "G'o'zani zararkunandalardan himoya qilish" Toshkent 1991 yil Mexnat
3. Arslonov M.T., Yusupov A.X., B.A.Sulaymonov. O'simliklarni biologik himoya qilish. - Toshkent: "Ilm ziyo", - 2003.
4. Sh.T. Xo'jayev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. – 2019.